



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	



MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI



Qurbonov Sherzod Ismatillayevich
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
Biznes boshqaruvi (Menejment) mutaxassislighi
2-bosqich magistranti
ORCID: 0009-0008-0047-6574

Annotatsiya. Maqolada menejment va biznes boshqaruvida ekologik yondashuvning nazariy-uslubiy asoslari, uning korporativ strategiya, operatsion boshqaruv, risk-menejment, investitsiya qarorlari va hisobot tizimiga integratsiyasi tadqiq etilgan. O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o'tish, milliy shaffoflik tizimini rivojlantirish hamda 2026-yildan barqaror rivojlanish va ESG hisobotini joriy etishga doir institutsional o'zgarishlar boshqaruv nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ekologik maqsadlarni biznesning asosiy KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lashga asoslangan “strategiya — jarayon — o'lchov — nazorat — hisobot — takomillashtirish” modeli taklif etilgan. Tadqiqot yakunida korxonalarda ekologik menejmentni rivojlantirish bo'yicha sakkizta amaliy taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik menejment, biznes boshqaruvi, ESG, “yashil” iqtisodiyot, korporativ strategiya, ekologik risk, resurs samaradorligi, KPI, barqaror rivojlanish, korporativ hisobot.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методические основы экологического подхода в менеджменте и управлении бизнесом, а также его интеграция в корпоративную стратегию, операционное управление, риск-менеджмент, инвестиционные решения и систему отчетности. С позиции управления проанализированы институциональные изменения в Узбекистане, связанные с переходом к «зеленой» экономике, развитием национальной системы прозрачности и внедрением отчетности по устойчивому развитию и ESG с 2026 года. Предложена модель «стратегия — процесс — измерение — контроль — отчетность — совершенствование», связывающая экологические цели с ключевыми показателями эффективности бизнеса. Разработаны восемь практических рекомендаций по развитию экологического менеджмента на предприятиях.

Ключевые слова: экологический менеджмент, управление бизнесом, ESG, зеленая экономика, корпоративная стратегия, экологический риск, ресурсоэффективность, KPI, устойчивое развитие, корпоративная отчетность.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of an environmental approach to management and business administration and its integration into corporate strategy, operations, risk management, investment decisions and reporting. Institutional changes in Uzbekistan related to the transition to a green economy, the development of a national transparency system and the introduction of sustainability and ESG reporting from 2026 are analysed from a managerial perspective. A “strategy — process — measurement — control — reporting — improvement” model is proposed to link environmental objectives with core business KPIs. Eight practical recommendations are developed for strengthening environmental management in enterprises.

Keywords: environmental management, business administration, ESG, green economy, corporate strategy, environmental risk, resource efficiency, KPI, sustainable development, corporate reporting.



KIRISH

Global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning mazmuni tobora kengayib, korxona samaradorligi faqat daromad, rentabellik va bozor ulushi bilan emas, balki resurslardan foydalanish sifati, ekologik xatarlarni boshqarish, ta'minot zanjirining barqarorligi hamda manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlik bilan ham baholanmoqda. Shu sababli ekologik masalalarni ishlab chiqarish yoki ekologiya bo'limining alohida vazifasi sifatida ko'rish o'rniga, ularni strategik va operatsion menejmentning tarkibiy qismiga aylantirish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekistonda bu yo'nalishning institutsional asosi izchil shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ¹ iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejankor va kam uglerodli rivojlanishga o'tishning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ² ushbu maqsadlarni aniq natijaviy ko'rsatkichlar va tarmoqlararo vazifalar bilan mustahkamladi.

2024-yilda milliy shaffoflik va MRV — monitoring, hisobot va tekshiruv — tizimining huquqiy asoslari kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ³ korporativ darajadagi ekologik ma'lumotlar sifati, o'lchov va hisobot masalalarining ahamiyatini oshirdi. 2026-yilda esa Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son "Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ⁴ ESG hisobotlari, ichki nazorat, kuzatuv kengashi mas'uliyati va mustaqil tasdiqlash mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur jarayonlar ekologik yondashuvni biznes uchun qo'shimcha xarajat sifatida emas, balki risklarni kamaytirish, resurs samaradorligini oshirish, kapital va bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda uzoq muddatli qiymat yaratish vositasi sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi — menejment va biznes boshqaruvida ekologik yondashuvni tizimli asoslash, O'zbekistondagi yangi institutsional talablarni korporativ boshqaruv mexanizmlari bilan bog'lash hamda amaliy boshqaruv modelini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik menejmentning zamonaviy nazariy asoslaridan biri M. Porter va C. van der Linde tomonidan ilgari surilgan ekologik tartibga solish va raqobatbardoshlik o'rtaidagi bog'liqlik konsepsiyasidir. Mualliflar to'g'ri ishlab chiqilgan ekologik talablar korxonani innovatsiyaga undashi, resurs isrofini kamaytirishi va ayrim hollarda muvofiqlik xarajatlarini qoplaydigan unumdorlik samarasini yuzaga keltirishi mumkinligini asoslaydi ⁵. Bu yondashuv ekologik boshqaruvni xarajat markazidan samaradorlik va innovatsiya manbaiga aylantiradi.

S.L. Hartning tabiiy resurslarga asoslangan firma nazariyasi korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini ifloslanishni oldini olish, mahsulot hayotiy siklini boshqarish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan strategik qobiliyatlar bilan bog'laydi ⁶. Ushbu nazariya ekologik kompetensiyalarni tashkilotning strategik resursi sifatida ko'rishga imkon beradi.

R.G. Eccles, I. Ioannou va G. Serafeim korporativ barqarorlik siyosatini chuqurroq joriy qilgan kompaniyalarda boshqaruv jarayonlari, manfaatdor tomonlar bilan ishlash, axborot oshkoraligi va uzoq muddatli natijalarga e'tibor kuchliroq shakllanishini ko'rsatgan ⁷. Shundan kelib chiqib, ekologik yondashuv alohida ekologik dasturlar yig'indisi emas, balki strategik boshqaruv arxitekturasining bir qismi bo'lishi lozim.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6303230>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6956101>

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son "Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-8171367>

5 Porter M.E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives. 1995. Vol. 9, No. 4. P. 97–118. DOI: 10.1257/jep.9.4.97.

6 Hart S.L. A Natural-Resource-Based View of the Firm // Academy of Management Review. 1995. Vol. 20, No. 4. P. 986–1014. DOI: 10.5465/AMR.1995.9512280033.

7 Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science. 2014. Vol. 60, No. 11. P. 2835–2857.



Barqarorlik bo'yicha xalqaro hisobot tizimida IFRS S1 va IFRS S2 standartlari muhim o'rin egallaydi. IFRS S1 korxonaning istiqboliga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barqarorlikka oid risk va imkoniyatlar bo'yicha moliyaviy ahamiyatga ega axborotni, IFRS S2 esa iqlimga oid risk va imkoniyatlarni ochiqlashga qaratilgan⁸. Mazkur yondashuv ekologik ma'lumotlarni moliyaviy va strategik qarorlar bilan birlashtiradi.

J. Elkington tomonidan ilgari surilgan "triple bottom line" konsepsiyasi biznes natijalarini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik uch o'lchovning uyg'unligi asosida baholashni taklif etadi⁹. R.E. Freemanning manfaatdor tomonlar nazariyasi esa korxona qarorlarida faqat aksiyadorlar emas, balki xodimlar, iste'molchilar, hamkorlar, mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi¹⁰.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ekologik va ESG yondashuvlarini biznes boshqaruviga integratsiya qilish masalalari tobora kengroq o'rganilmoqda. Sh.T. Ergasheva va hammualliflar Markaziy Osiyo sharoitida robotlashtirilgan biznesni ESG tamoyillari bilan uyg'unlashtirishni tahlil qilib, texnologik modernizatsiya jarayoni "yashil" iqtisodiyot maqsadlari va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bir vaqtda olib borilishi lozimligini asoslaydi. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiyani ekologik mas'uliyatdan ajratmasdan boshqarish zarurligini ko'rsatadi.¹¹

G.Q. Abdurakhmanova va N. Xodjaraxmanova O'zbekiston sanoat tarmoqlarida aylanma iqtisodiyot yechimlarini barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'lab, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur qarash ekologik menejmentni korxonaning operatsion modeli va innovatsion siyosati bilan bog'lash uchun muhim nazariy-amaliy asos beradi.¹²

U.R. Sangirova, D. Shadieva, M. Raimjanova, N. Umurzakova va N. Akramova O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishni daromad va bandlik o'sishini ekologik xavflarni kamaytirish, resurs va energiya samaradorligini oshirish hamda davlat va xususiy investitsiyalarni ekologik yo'nalishlarga safarbar etish bilan uyg'un jarayon sifatida baholaydi. Ularning tadqiqoti milliy "yashil" transformatsiya maqsadlarini korxona darajasidagi investitsiya va resurs boshqaruvi bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.¹³

D.R. Xabibullayev aksiyadorlik jamiyatlarida ESG mezonlarining boshqaruv samaradorligiga ta'sirini o'rganib, ESG komponentlari boshqaruv apparati faoliyati, risklarni boshqarish mexanizmlari va korxonaning investitsion jozibadorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bu xulosa ekologik ko'rsatkichlarni faqat hisobot elementi sifatida emas, balki korporativ boshqaruv samaradorligini baholash vositasi sifatida qo'llash zarurligini kuchaytiradi.¹⁴

J.T. Nosirov va hammualliflar ekologik soliqqa tortishni "yashil" biznesda ESG boshqaruvini rag'batlantiruvchi iqtisodiy vosita sifatida tahlil qilib, ekologik soliq, mas'uliyatli biznes instrumentlari, kompaniya marjasi va uglerod izi o'rtasidagi bog'liqlikning konseptual modelini taklif etadi. Ushbu yondashuv ekologik menejmentda ma'muriy nazorat bilan bir qatorda iqtisodiy rag'bat va korporativ javobgarlik mexanizmlaridan foydalanish zarurligini asoslaydi.¹⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, institutsional tahlil, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili orqali "yashil" iqtisodiyot, milliy shaffoflik, ESG hisobotlari va korporativ boshqaruvga oid talablar boshqaruv funksiyalari — rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat va hisobot — bilan qiyoslandi.

Tahlilning mantiqiy modeli ekologik maqsadni korxona boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilishga asoslanadi: "strategik maqsad → ekologik risk va imkoniyat → biznes-jarayon → o'lchanadigan KPI → ichki nazorat → korporativ hisobot → boshqaruv qarori va takomillashtirish". Ushbu model ekologik ko'rsatkichlarni korxonaning asosiy boshqaruv konturidan tashqarida qolib ketishining oldini olishga qaratilgan.

8 IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. London: IFRS Foundation, 2023.

9 Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Oxford: Capstone, 1997.

10 Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman, 1984.

11 Ergasheva Sh.T., Khaydarova N.A., Litvinova T.N., Cherepukhin T.Yu. ESG Management of Robotized Business in Support of Green Economy Development in Russia and Central Asia // ESG Management of the Development of the Green Economy in Central Asia / eds. E.G. Popkova, B.S. Sergi. Cham: Springer, 2023. P. 13–21. DOI: 10.1007/978-3-031-46525-3_2.

12 Abdurakhmanova G., Xodjaraxmanova N. Innovative Solutions of Circular Economy within Sustainable Economic Growth and Their Integration into Industrial Sectors // International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. 2025. P. 66–70.

13 Sangirova U., Shadieva D., Raimjanova M., Umurzakova N., Akramova N. Green Economy Development in the Republic of Uzbekistan // BIO Web of Conferences. 2024. Vol. 130. 08028. DOI: 10.1051/bioconf/202413008028.

14 Xabibullayev D. Aksiyadorlik jamiyatlarida ESG omillarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2026. J. 4, № 5. B. 188–194. DOI: 10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss5-pp188-194.

15 Bogoviz A.V., Nosirov J.T., Litvinova T.N., Ostrovskaya V.N. Environmental Taxation as an Incentive to ESG Management of Green Business in Russia and Central Asia // ESG Management of the Development of the Green Economy in Central Asia / eds. E.G. Popkova, B.S. Sergi. Cham: Springer, 2023. P. 67–74. DOI: 10.1007/978-3-031-46525-3_8.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish dasturida belgilangan 2030-yilgi maqsadlar korxonalar uchun bevosita boshqaruv signali vazifasini bajaradi. Ular faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar emas; energiya, suv, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya, logistika va hisobot bo'yicha korporativ qarorlarning yo'nalishini ham belgilaydi.

1-jadval. Milliy "yashil" maqsadlarning biznes boshqaruvi uchun mazmuni

2030-yilga mo'ljallangan yo'nalish	Maqsadli ko'rsatkich	Korporativ boshqaruv uchun amaliy mazmun
Issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi	2010-yilga nisbatan 35% kamaytirish	Uglerod hisobini yuritish, energiya va texnologik modernizatsiya bo'yicha KPIlarni strategiyaga kiritish
Qayta tiklanuvchi energiya	Quvvatni 15 GVtga oshirish va elektr ishlab chiqarishdagi ulushini 30%dan yuqoriga yetkazish	Energiya xarid strategiyasi, tom usti quyosh tizimlari, uzoq muddatli energiya shartnomalari va investitsiya tahlili
Sanoat energiya samaradorligi	Kamida 20% oshirish	Energiya auditi, energiya menejmenti, sexlar kesimida hisoblagichlar va tejamkor uskunalar
YAIM birligiga energiya sarfi	30% kamaytirish	Mahsulot birligiga energiya sarfini asosiy operatsion KPI sifatida kuzatish
Suv tejovchi texnologiyalar	1 mln gektargacha maydonda joriy etish	Suv izini hisoblash, qayta foydalanish, yetkazib beruvchilar uchun suv samaradorligi mezonlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarorida belgilangan maqsadlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, ekologik maqsadlarni biznes boshqaruvi integratsiya qilishda asosiy masala "maqsad bor yoki yo'q" emas, balki uni korxona darajasida qaysi ko'rsatkich, qaysi javobgar shaxs, qaysi investitsiya qarori va qaysi nazorat mexanizmi orqali boshqarish masalasidir. Masalan, energiya samaradorligi strategik maqsad sifatida e'lon qilinib, mahsulot birligiga sarflangan kVt-soat, energiya xarajatining tannarxdagi ulushi va energiya auditi bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi bilan bog'lanmasa, ekologik maqsad real boshqaruv mexanizmiga aylanmaydi.

2026-yildagi ESG tartibga solish bu bog'liqlikni yanada kuchaytirdi. Vazirlar Mahkamasining 221-son qarorida ESG ma'lumotlarining to'g'riligi, ichki nazorat, kuzatuv kengashining audit va xatarlarni boshqarish qo'mitasi vakolatlari, barqarorlik ma'lumotlarini moliyaviy axborot bilan muvofiqlashtirish va tashqi tasdiqlash masalalari belgilangan. Qarorda barqaror rivojlanish va ESG hisobotini bosqichma-bosqich va ixtiyoriy joriy etish uchun kamida 50 ta mahalliy korxonani tanlash vazifasi ham nazarda tutilgan.

2-jadval. Ekologik yondashuvni korporativ boshqaruvga integratsiya qilish darajalari

Boshqaruv darajasi	Asosiy savol	Ekologik instrument	Natija ko'rsatkichi
Strategik boshqaruv	Ekologik omil biznes modeliga qanday ta'sir qiladi?	ESG strategiya, iqlim ssenariylari, investitsiya mezonlari	Uzoq muddatli qiymat, riskka mos investitsiya portfeli
Operatsion boshqaruv	Resurs va chiqindilar qayerda yo'qotilmoqda?	Energiya/suv auditi, ISO 14001, toza ishlab chiqarish	Mahsulot birligiga resurs sarfi, chiqindi va emissiya
Moliyaviy boshqaruv	Ekologik qarorning iqtisodiy samarasi qancha?	TCO, NPV, ichki uglerod narxi, "yashil" moliya	Tejalgan xarajat, investitsiya qaytimi, kapital qiymati
Risk-menejment	Qaysi ekologik va iqlim xatarlari muhim?	Risk reyestri, ssenariy tahlili, yetkazib beruvchi auditi	Xatar ehtimoli va zarari, uzilishlar chastotasi
Korporativ nazorat	Ma'lumot ishonchlimi va javobgarlik aniqmi?	Ichki nazorat, audit qo'mitasi, mustaqil tasdiqlash	Ma'lumot sifati, kamchiliklarni bartaraf etish muddati
Hisobot va kommunikatsiya	Natija manfaatdor tomonlarga qanday ko'rsatiladi?	IFRS S1/S2, ESG hisobot, milliy taksonomiya	Oshkoralik, taqqoslanish, investor ishonchi

Manba: muallif ishlanmasi.



Ekologik yondashuvning eng muhim jihati — ekologik va moliyaviy boshqaruv o'rtasidagi "ma'lumot uzilishi"ni bartaraf etishdir. Korxonalarda ekologik ma'lumot ko'pincha tonna, kub metr yoki kVt-soatda yuritiladi, moliyaviy boshqaruv esa so'm, rentabellik va pul oqimi bilan ishlaydi. Samarali menejment ushbu ikki tilni birlashtirishi kerak: masalan, bir tonna mahsulotga sarflangan energiyani nafaqat fizik birlikda, balki tannarxga, marjaga va investitsiya qaroriga ta'siri bilan baholash zarur.

Bunda ekologik KPllar sonini haddan tashqari ko'paytirish ham samarasiz. Boshqaruv uchun 5–10 ta asosiy ko'rsatkichni korxonaning biznes modeli va eng muhim ekologik ta'sirlariga mos tanlash maqsadga muvofiq. Ko'rsatkichlar o'lchanadigan, davriy ravishda yangilanadigan, javobgar bo'linmaga biriktirilgan va boshqaruv qarori bilan bevosita bog'langan bo'lishi lozim.

3-jadval. Korxona uchun tavsiya etiladigan ekologik boshqaruv KPllari

Yo'nalish	Asosiy KPI	Hisoblash bazasi	Boshqaruv qarori
Energiya	Mahsulot birligiga energiya sarfi	kVt-soat / mahsulot birligi	Uskunani almashtirish, jarayonni optimallashtirish
Suv	Mahsulot birligiga suv sarfi	m ³ / mahsulot birligi	Qayta aylantirish, oqishlarni bartaraf etish
Uglerod	Emissiya intensivligi	tCO ₂ e / tushum yoki mahsulot	Energiya manbai, logistika va texnologiya tanlovi
Chiqindi	Qayta ishlash ulushi	Qayta ishlangan chiqindi / jami chiqindi, %	Material oqimini qayta loyihalash
Ta'minot zanjiri	Ekologik mezondan o'tgan yetkazib beruvchilar	Mos yetkazib beruvchi / jami, %	Xarid siyosati va shartnoma talablari
Investitsiya	"Yashil" CAPEX ulushi	Ekologik loyihalar CAPEX / jami CAPEX, %	Kapitalni ustuvor loyihalarga taqsimlash

Manba: muallif ishlanmasi.

Ekologik KPllarni rahbarlar motivatsiyasi bilan bog'lash alohida ahamiyatga ega. 221-son qarorda ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligini KPI asosida baholash va ushbu ko'rsatkichlarni ijroiya organi faoliyatini rag'batlantirish tizimiga integratsiya qilish nazarda tutilgani boshqaruv amaliyotida "ekologik natija uchun shaxsiy javobgarlik" tamoyilini kuchaytiradi. Bu yondashuv ESGni faqat hisobot tayyorlash funksiyasidan real boshqaruv funksiyasiga o'tkazadi.

Ekologik yondashuv investitsiya qarorlarida ham namoyon bo'lishi kerak. Energiya tejamkor uskuna yoki chiqindini qayta ishlash loyihasi faqat boshlang'ich narx bo'yicha emas, balki butun hayotiy sikl xarajati, energiya va suv tejalishi, emissiya kamayishi, ta'mirlash xarajati, tartibga solish xatari va bozor imkoniyatlari bilan birgalikda baholanishi lozim. Bunday tahlil ekologik va moliyaviy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni qaror qabul qiluvchi rahbar uchun aniq ko'rsatadi.

Ta'minot zanjiri boshqaruvi yana bir muhim yo'nalishdir. Eksport qiluvchi yoki xalqaro qiymat zanjiriga kiruvchi korxona uchun ekologik talablar o'z korxonasi hududi bilan cheklanmaydi. Xomashyo kelib chiqishi, yetkazib beruvchining energiya va suv samaradorligi, mahsulotning uglerod izi hamda logistika modeli ham bozor talablariga ta'sir qilishi mumkin. 2026-yildagi ESG qoidalarida Yevropa Ittifoqi bilan savdo qiluvchi yoki global ta'minot zanjirida ishtirok etuvchi korxonalarga tegishli xalqaro talablarni inobatga olish zarurligi qayd etilgan.

Shu nuqtayi nazardan, ekologik menejmentning quyidagi olti bosqichli korporativ sikli taklif etiladi: 1) muhim ekologik ta'sir va risklarni aniqlash; 2) o'lchanadigan maqsad va KPllarni belgilash; 3) jarayon egasi va javobgar rahbarni tayinlash; 4) investitsiya va operatsion choralarni amalga oshirish; 5) ichki nazorat, audit va ma'lumotlar sifatini ta'minlash; 6) natijalarni hisobot qilish va keyingi boshqaruv sikliga tuzatish kiritish. Ushbu sikl PDCA mantiqiga yaqin bo'lib, ekologik masalalarni doimiy takomillashtirish jarayoniga aylantiradi. ISO 14001 standarti ham ekologik boshqaruv tizimini tashkilotning strategik va operatsion jarayonlari bilan integratsiya qilishga asoslanadi ¹⁶.

Menejment nuqtayi nazaridan eng katta xavflardan biri "greenwashing" — real boshqaruv o'zgarishlarisiz ekologik imij yaratishga urinishdir. Buni kamaytirish uchun ekologik bayonotlar o'lchanadigan ko'rsatkichlar, metodologiya, boshlang'ich baza, maqsadli qiymat va mustaqil tekshiruv bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Milliy ESG qoidalarida mustaqil tashqi tasdiqlash, ISAE 3000 va ISSA 5000 standartlariga o'tish, ichki nazorat

¹⁶ ISO. ISO 14001:2015 Environmental management systems — Requirements with guidance for use. Geneva: International Organization for Standardization, 2015.



va ma'lumotlar yaxlitligi bo'yicha talablarning belgilanishi aynan axborot ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

2026-yilgi yangi strategik bosqichda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasidagi islohotlarni davom ettirish vazifalari ham barqarorlikni davlat va biznes boshqaruvi bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹⁷ o'rta muddatli strategik maqsadlarning yangi bosqichini belgilaydi. Korporativ boshqaruv tizimi ushbu milliy ustuvorliklarni korxona darajasidagi o'lchanadigan natijalarga transformatsiya qilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari menejment va biznes boshqaruvida ekologik yondashuvning mohiyati ekologik tadbirlarni ko'paytirishda emas, balki ekologik omillarni strategiya, moliya, operatsion jarayonlar, risk-menejment, motivatsiya va korporativ nazorat tizimiga integratsiya qilishda ekanini ko'rsatadi. Ekologik maqsad biznes maqsadidan ajralgan holatda u ko'pincha hisobot yoki imij vazifasiga aylanadi; u KPI, javobgarlik va investitsiya qarori bilan bog'langandagina boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda 2019–2026-yillarda "yashil" iqtisodiyot strategiyasi, 2030-yilgi maqsadlar, milliy shaffoflik tizimi va ESG hisobotlari bo'yicha huquqiy baza bosqichma-bosqich korporativ boshqaruv darajasiga yaqinlashdi. Ayniqsa, 2026-yildagi 221-son qaror ekologik va barqarorlik ma'lumotlarini kuzatuv kengashi, audit va risk qo'mitasi, ichki nazorat hamda tashqi tasdiqlash bilan bog'lagani bilan muhimdir.

Uchinchidan, milliy miqyosdagi emissiya, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya maqsadlariga erishish korxonalarda mahsulot birligiga resurs sarfi, emissiya intensivligi, "yashil" CAPEX, chiqindini qayta ishlash va ekologik talablarga mos yetkazib beruvchilar ulushi kabi ko'rsatkichlarni muntazam boshqarishni talab etadi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Har bir yirik va o'rta korxonada ekologik va iqlim risklarini korporativ risk reyestriga kiritish hamda ularni kamida yiliga bir marta strategik rejalashtirish jarayonida qayta baholash.

2. Ekologik maqsadlarni korxonaning 5–10 ta asosiy KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lash; ko'rsatkichlarga boshlang'ich baza, maqsadli qiymat, muddat va javobgar rahbarni biriktirish.

3. Energiya, suv va xomashyo sarfini mahsulot yoki xizmat birligiga nisbatan hisoblaydigan boshqaruv hisobini joriy etish hamda ushbu ma'lumotlarni tannarx tahliliga integratsiya qilish.

4. Kapital qo'yilmalarni baholashda boshlang'ich narx bilan cheklanmasdan, butun hayotiy sikl xarajati, resurs tejalishi, ekologik risk va bozor imkoniyatlarini hisobga oluvchi "yashil investitsiya filtri"ni qo'llash.

5. Kuzatuv kengashi va ijroiya organi darajasida ESG bo'yicha aniq vakolatlarni belgilash, ekologik natijalarning bir qismini rahbarlarni rag'batlantirish tizimiga kiritish.

6. Ta'minot zanjirida ekologik mezonlarni xarid siyosati va yetkazib beruvchilarni baholash tizimiga kiritish; eksportyor korxonalarda mahsulotning uglerod va resurs izini bosqichma-bosqich hisoblash.

7. IFRS S1, IFRS S2 va milliy ESG talablariga mos ma'lumotlar arxitekturasini yaratish, ekologik ma'lumotlarni moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirish hamda ichki nazoratni kuchaytirish.

8. Oliy ta'lim va biznes hamkorligida ekologik menejment, ESG, energiya menejmenti, iqlim risklari va barqaror moliya bo'yicha menejerlar uchun qisqa muddatli amaliy dasturlarni kengaytirish.

Umuman olganda, ekologik yondashuv biznesning an'anaviy iqtisodiy maqsadlariga qarama-qarshi emas. To'g'ri boshqaruv arxitekturasini sharoitida u xarajatlarni kamaytirish, risklarni oldindan boshqarish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy korxona uchun ekologik menejment — alohida funksional yo'nalish emas, balki strategik boshqaruvning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — <https://lex.uz/docs/-4539502>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-8050769>



Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. — <https://lex.uz/docs/-6303230>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son “O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. — <https://lex.uz/docs/-6956101>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son “Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. — <https://lex.uz/docs/-8171367>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. — <https://lex.uz/docs/-8050769>

6. Porter M.E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // *Journal of Economic Perspectives*. — 1995. — Vol. 9, No. 4. — P. 97–118. — DOI: 10.1257/jep.9.4.97.

7. Hart S.L. A Natural-Resource-Based View of the Firm // *Academy of Management Review*. — 1995. — Vol. 20, No. 4. — P. 986–1014. — DOI: 10.5465/AMR.1995.9512280033.

8. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // *Management Science*. — 2014. — Vol. 60, No. 11. — P. 2835–2857.

9. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. — London: IFRS Foundation, 2023.

10. IFRS Foundation. IFRS S2 Climate-related Disclosures. — London: IFRS Foundation, 2023.

11. Elkington J. *Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business*. — Oxford: Capstone, 1997.

12. Freeman R.E. *Strategic Management: A Stakeholder Approach*. — Boston: Pitman, 1984.

13. ISO. ISO 14001:2015 Environmental management systems — Requirements with guidance for use. — Geneva: International Organization for Standardization, 2015.

14. Ergasheva Sh.T., Khaydarova N.A., Litvinova T.N., Cherepukhin T.Yu. ESG Management of Robotized Business in Support of Green Economy Development in Russia and Central Asia // *ESG Management of the Development of the Green Economy in Central Asia* / eds. E.G. Popkova, B.S. Sergi. — Cham: Springer, 2023. — P. 13–21. — DOI: 10.1007/978-3-031-46525-3_2.

15. Abdurakhmanova G., Xodjaraxmanova N. Innovative Solutions of Circular Economy within Sustainable Economic Growth and Their Integration into Industrial Sectors // *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. — 2025. — P. 66–70.

16. Sangirova U., Shadieva D., Raimjanova M., Umurzakova N., Akramova N. Green Economy Development in the Republic of Uzbekistan // *BIO Web of Conferences*. — 2024. — Vol. 130. — 08028. — DOI: 10.1051/bioconf/202413008028.

17. Xabibullayev D. Aksiyadorlik jamiyatlarida ESG omillarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. — 2026. — J. 4, № 5. — B. 188–194. — DOI: 10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss5-pp188-194.

18. Bogoviz A.V., Nosirov J.T., Litvinova T.N., Ostrovskaya V.N. Environmental Taxation as an Incentive to ESG Management of Green Business in Russia and Central Asia // *ESG Management of the Development of the Green Economy in Central Asia* / eds. E.G. Popkova, B.S. Sergi. — Cham: Springer, 2023. — P. 67–74. — DOI: 10.1007/978-3-031-46525-3_8.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

